

**TALABALARNING IJTIMOIIY YETUKLIGINI
RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**

Raximova Nazokatxon Kasimjanovna

*O'zMU, "Ijtimoiy psixologiya kafedrasi" katta o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologiya fanida ijtimoiy yetuklik masalalarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari tahlili olib borilgan bo'lib, ijtimoiy yetuklik tushunchasining mohiyatini yoritib berilgan. Bundan tashqari talabalar ijtimoiy yetukligini tavsiflovchi asosiy ijtimoiy-psixologik komponentlarni aniqlangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy yetuklik, talabalarda ma'naviy-axloqiy javobgarlik, sezitivlik, empatiya, irodaviy sifatlar, hayotiy pozisiya, adekvat, psixodiagnostika, adabtatsiya.

Аннотация. В данной статье проведен анализ теоретико-методологических основ изучения вопросов социальной зрелости в психологической науке, освещена сущность понятия социальной зрелости. Кроме того, выявлены основные социально-психологические компоненты, характеризующие социальную зрелость учащихся.

Ключевые слова: социальная зрелость, духовно-нравственная ответственность учащихся, чувствительность, сочувствие, волевые качества, жизненная позиция, адекватность, психодиагностика, адаптация.

Kirish.

Yangi O'zbekistonda ro'y berayotgan tub islohotlar, fundamental o'zgarishlar tufayli talabalar shaxsini faol rivojlantirish, kasb-hunar, yuqori malakali mehnatga bo'lgan munosabatining odatiy mezonlarini o'zgartirish, fuqarolarni oliy ta'lim bilan yanada keng qamrab olish, yangi ilmiy-amaliy muammolarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan yangi ijtimoiy muhit

shakllanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «Talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish hamda yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlarini uchun xizmat qilish tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish» bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlashda psixologiya sohasi mutaxassislarini talabalar ijtimoiy yetukligini o'rganishlari uchun yangicha ilmiy yechimlarni topish imkoniyati tug'ildi.

Shaxsning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, ma'naviy, falsafiy dunyosi bilan bog'liq - yetuklik tushunchasi, mavjud. Yetuklik V.I.Dalning izohi bo'yicha yetilish, ongli o'ylab, fikrlab ish ko'rish davri" deb qayd etilgan [3]. A.V.Petrovskiy va M.G.Yaroshevskiylarning "Psixologiya" lug'atida yetuklik - bu ontogeneznining uzoq davom etadigan davri bo'lib, shaxsning ma'naviy, intellektual va jismoniy yetilishining yuqori rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Unda yetuklik yosh davrlariga mos holda o'smirlik, yoshlik, ulg'ayish, yetuklik yoshi sifatida talqin etilgan. A.Reber esa o'zining "Katta psixologik izohli lug'ati", "Yetuklik - ulg'ayish, bo'y o'sishining tugashi, yetilish davrining yakunlanishi" deb izoh bergan. Ushbu termin shaxsning yetilish bosqichlarini aniqlashda sifat bilan qo'llanilgan. Masalan, to'liq yetuklik, intellektual yetuklik, emosional yetuklik, ijtimoiy yetuklik tushunchalar kabi tushunchalar yordamida izohlangan. Demak, fikrimizcha bu tushuncha odamlarni ijtimoiy hayotdagi o'rni, jamiyatda o'rnatilgan tartib-qoidalarga mos faoliyati va fikr-mulohazalarga rioya etish darajasida namoyon qilishlarini baholashda qo'llash lozim bo'ladi. Fransuz psixologi E.Klapared (1926) yetuklikni psixik "toshday qotish" rivojlanishning to'xtashi deb izohlaydi. Yetuklik tushunchasi O'zbek tilining izohli lug'atida "yetuk ekanlik,

yetuk darajaga ega ekanlik” deb qayd etilgan. Z.M.Ma’rufov “yetuklik – yetuk tushunchasi bilan izohlangan, yetuk - jismoniy jihatdan to‘la rivojlangan, kamolatga erishgan, bilimli, ilimli, o‘z ishida katta tajriba, bilim, mahorat orttirgan; tajribali, yuqori saviyada ishlagan; pishiq, puxta” deb ta’riflagan [119]. Bu jismoniy yoshgina emas, balki uning ijtimoiy, emosional, ma’naviy va intellektual taraqqiyot darajasini belgilovchi tushuncha deb izohlash kerak. Yetuklik avvalo ma’lum ma’noda, sub’yektiv tushuncha bo‘lib, uni darajasini belgilovchi normalargina emas, balki shaxsning unga bo‘lgan o‘z munosabati ham ahamiyatlidir. Ijtimoiy psixologiyada yetuklik tushunchasi shaxsning rivojlanish bosqichi sifatida tadqiq qilishni talab etadigan tushuncha deb qarash lozim. Chunki, yetuklik tushunchasini individ, shaxs va individuallik tushunchalari bilan uyg‘un holda tadqiq qilish taqozo etadi. L.Rubinshteynning fikricha, bolaning yetukligi tashqi muhit omillari va va 17 ta ichki faktorlarga ega. Ular shaxs taraqqiyoti turmush tarzi, unga bo‘lgan e’tibor va muhit bilan belgilanadi. Shu bilan birga, bolaning o‘z-o‘zini anglashi, o‘z-o‘zini kamolot sari rivojlantirishi va faoliyati uning turmush tarzi o‘zgarishiga qarab o‘zgaradi va taraqqiyotning yangi bosqichlariga zamin yaratadi. Yetuklikka bunday ta’rif diqqatga sazovor deb bilamiz.

Bugungi kunda yetuklik tushunchasi insonning turli yosh davrlariga baho berishda qo‘llanib kelinmoqda. XX asrning 60-70 yillarida yetuklik tushunchasi “o‘rta yosh”, “yetilish” deb talqin qilingan. Dj. Birren tadqiqotlarida “yetuklik” insonning qarilik davri bilan uyg‘unlashadi. U yetuklikni quyidagi davrlarga bo‘ladi: o‘spirinlik - 12-17 yosh; erta yetuklik - 17-25 yosh; yetuklik - 25-50 yosh; kech yetuklik - 50-75 yosh; qarilik - 75 yosh. A.K.Bolotova va T.Z.Kozlovalar ham o‘spirinlik yetuklikning boshlang‘ich davri deb fikrlar bildirgan. Ma’lumki, har bir yosh davri, o‘ziga xos rivojlanish bosqichlari bilan izohlanadi. Bosqichlar esa oilada, maktabda va talabalik ta’lim va tarbiya shakllar hamda uning yangi faoliyat turlari, organizmni xususiyatlari kabi jarayonlarni qayd etish mumkin. Aksariyat adabiyotlarda “yetuk shaxs” tushunchasi komillik bilan uyg‘un tarzda baholanib kelingan. Tadqiqotchi psixologlar yetuk shaxs xususiyatlariga faollik, kreativlik, fe’l-atvor ijtimoiy holatlarga va shaxslararo munosabatlar, maqsad va samarali o‘y-

fikrlash qobiliyatlari kabi xususiyatlarni ham e'tiborga olganlar. Qadimiy grek faylasuflari yetuklikni yosh va ruhiy holatidan kelib chiqib "akme", ya'ni yuqori, darajadagi erishganlik ma'nosida izohlashgan. Hozirgi zamonaviy pedagogika va psixologiyasida "akme" tushunchasi qo'llanilib, ilk bor ilmiy jihatdan N.N.Рыбников (1928) "akmeologiya" terminini kiritib, yetuklikni inson hayotining eng maqsuldor, ijodkor davri sifatida ta'riflaydi. Ushbu "akme" tushunchasi A.A.Bodalev tomonidan akme – insoniyat imkoniyatlari va kuchining ifodalanishi ijtimoiy, axloqiy, kasbiy, mental yetukligi deb izohlanadi. Uning xulosasiga ko'ra, akme – bu, avvalo, shaxsiy taraqqiyot, insonning biror-bir vaziyat va xatti-harakatda o'z imkoniyatlarini namoyon qilishi, yuqori rivojlangan shaxs sifatida jamiyatning madaniy rivojlanish qadriyatlarini shaxsiy qadriyatlari sifatida namoyon qilishi demakdir. Shu nuqtai nazardan, ulg'ayish va yetuklik sinonim va bir xil tushunchalar emasligi muallif tomonidan baholangan. Inson ulg'ayishi ammo yetuklik darajasiga yetmasligi ham mumkin. "Agar inson turli vaziyatlarda umuminsoniy me'yorlar va qadriyatlar asosida xatti-harakat qilsa, uni dadil yetuk shaxs deya olamiz. Lekin boshqa bir vaziyatda bir me'yor va talabga rioya qilib, boshqa bir vaziyatda unga rioya qilmasa va qabul etmasa, demak u qisman "yetuk" deya olamiz"-deydi. Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, yetuk, eng yaxshi o'sish davr ma'nolarini bildiradi.

Shaxsning yetuklik darajasiga ta'sir etuvchi 5 aspektni ajratish mumkin:

1. Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi - qo'yilgan maqsad sari intilish, maksimal ravishda o'z-o'zini realizatsiya qilish, mustaqillik, tashabbuskorlik, liderlikka intilish, yuqori natijalarga erishishga harakat qilish.

2. O'z "Meni"ga munosabat, o'ziga bo'lgan munosabat, qobiliyat, xarakter va temperament munosabatlari, o'z-o'zini baholash, talabchanlik, samimiylik, kamsuqumlik, o'zini manmanlikdan asrash, boshqa odamlarga nisbatan hurmatda bo'lish.

3. Fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, kasbiy mas'uliyat va kompetensiya, muloqot qilishga extiyoj, jamoaviy mehnatni qo'llab-quvvatlash.

4. Hayotiy ustanovkalar. Intellektning xis-tuyg'udan ustunligi, emosional

barqarorlik, hamkorlikka intilish va keng fikrlilik.

5. Boshqalar bilan emosional, psixologik yaqinlikka intilish. Boshqalarni eshitish qobiliyati, boshqalar bilan yaqin bo'lish extiyoji. Shaxsning har bir taraqqiyot bosqichidagi yetukligini shu bosqichdagi yetakchi faoliyat, uning faolligi, muvaffaqiyatga erishishi ta'minlaydi.

Xulosa. O'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, bir tomondan, bu sohadagi tadqiqotlarning yuqori dolzarbligini, ikkinchi tomondan, talabalarning ijtimoiy yetukligini rivojlantirish muammosining nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqish darajasining yetarli emasligini ko'rsatadi, degan xulosaga kelish o'rinli hisoblanadi. Ta'lim oluvchilarning ijtimoiy yetukligiga bag'ishlangan tadqiqotlarning mantiqiy-nazariy tahlili turli nuqta nazarlar, ya'ni o'rganilayotgan hodisaning tushunchasi va mohiyatini ochib berishga ko'p funksiyali yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Милова Ю.В. Тренинг «Развитие личностного здоровья». // Вестник практической психологии образования: научно-методический журнал. - 2016. - № 4 (49). - С. 91-98.
2. Степанова Т.В. Педагогические условия формирования социальной зрелости студентов.//Перспективы науки и образования. -2015. № 6. - С. 36-47.
3. Поздняков А.В. Готовим учителей к формированию социальной зрелости старшеклассников. // Учитель. - 2003. - №4. - С. 58-61.
4. Крюкова В.В. Модель структуры социальной зрелости старшеклассника. // Балтийский гуманитарный журнал. - 2011. - №6. - С.45-51.